

E'tibor - ehtiromga eshik, e'zozga beshik

Ikkinchi jahon urushida qatnashib fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning ta'minlanishida O'zbekistondan ketgan bir yarim milliondan ziyod yurt farzandlarining hissasi borligini his etmaslik mumkin emas. Front va front ortida tinimsiz shijoat ham o'z ro'yobini ko'rsatgani aniq. Shuning uchun ham urush va mehnat faxriylari hurmatini joyiga qo'yish milliy qadriyatlarimizning belgisi. 2019 yil 8 may kuni institut talabalar oshxonasida institut rahbariyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 9 may - Xotira va qadrlash kuni - umumxalq bayrami munosabati bilan "Xotira - abadiy, qadr - muqaddas" shiori ostida bayram dasturxonini tashkil qilindi. Bayram dasturxoniga hozirgi kunda nafaqada bo'lgan ikkinchi jahon urushi davridagi mehnat fronti faxriylari hamda 25 nafar institutda faoliyat yuritayotgan faxriylar uchun institut talabalar oshxonasida milliy taom osh damlanib, bayram dasturxonini yozildi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov